



# “NAVOIYAZOT” AKSIYADORLIK JAMIYATI BUYRUQ

2026-yil “12” yanvar

0038

## Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida

So’nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining yanada samaradorligini oshirishga qaratilgan 2025-yil 5-iyunda qabul qilingan “Manfaatlar to’qnashuvi to’g’risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo’linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-147-son Qarori va “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-71-sonli Farmonlari va “O‘zkimyosanoat” AJning 2025-yil 30-dekabrda 0187-sonli buyrug’ida belgilangan talablar ijrosini ta’minlash maqsadida

### BUYURAMAN:

1. Mazkur hujjatlar ijrosini ta’minlash hamda qonunchilik talablari asosida kiritilgan o’zgartirishlarni inobatga olgan holda, quyidagi ichki me’yoriy hujjatlar qayta tasdiqlansin:

- “Navoiyazot” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha Siyosati 1-ilovaga muvofiq;

- “Navoiyazot” AJda manfaatlar to’qnashuvini boshqarish bo’yicha Nizom 2-ilovaga muvofiq;

- Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko’maklashgan “Navoiyazot” AJ xodimlarini rag’batlantirish tartibi to’g’risidagi Nizom 3-ilovaga muvofiq;

- “Navoiyazot” AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi to’g’risidagi Nizom 4-ilovaga muvofiq.

2. Boshqaruv raisi maslahatchisi, Umumiy bo’lim boshlig’i (Z.Egamov) mazkur hujjatlarni tegishligi bo’yicha mas’ul xodimlarga tarqatilishini ta’minlasin.

3. Boshqaruv raisi o’rinbosarlari, boshqarma, xizmat, bo’lim va sex boshliqlari mazkur ichki me’yoriy hujjatlar talablari faoliyatlarida qo’llanilsin.

4. Odob-axloq, xodimlarni ishga qabul qilish, xarid qilish va boshqa komissiyalar mazkur ichki me’yoriy hujjatlar talablari tegishligi bo’yicha faoliyatda qo’llanilsin.

5. Korxonani avtomatik boshqarish boshqarmasi (Turdiyev) buyruq va ilovalarda ko’rsatilgan hujjatlar “Navoiyazot” AJning rasmiy veb-sahifasiga joylashtirilsin.

6. Jamiyat boshqaruv raisining 2024-yil 21-oktabrdagi 1962-sonli buyrug’ining 1-ilovasida ko’rsatilgan “Navoiyazot” AJning korrupsiyaga qarshi siyosati, Xodimlarning manfaatlar to’qnashuvini boshqarish to’g’risidagi nizom, Komplayens-nazorat boshqarmasi nizomi o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruqning ijro nazoratini o’z zimmasida qoldiraman.

**Boshqaruv raisi v.b.**



**D. D. Jalilov**

**Rozilik**

---

**Boshqarma boshlig'i**

**R. I. Isoyev**



**Devonxona mudiri**

**Z. D. Egamov**



**Boshqaruv raisining  
maslahatchisi (davlat tilida ish  
yuritish bo'yicha)**

**Z. D. Egamov**



**Boshqarma boshlig'i**

**X. M. Farmanov**

**Boshqaruv raisining  
marketing, sotish va sotib  
olish bo'yicha o'rinbosari**



**B. Sh. Jurakulov**

**Bo'lim ichida rozilik**

---

**Boshqarma boshlig'i**

**A. T. Ochilov**



**Mas'ul**

---

**Bosh mutaxassis**

**K. X. Jumayev**



D. D. Jalilov



Boshqaruv raisi y.b.

2026-yil 12 - yanvardagi  
0038-son buyrug'iga 3 -ilova



**“Navoiyazot” AJ va uning tarmog’i korxonalarida  
Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar  
bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa  
tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish  
tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

Navoiyazot

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan "Uzbekistan Airports" AJ (keyingi o'rinlarda – Jamiyat) tizimidagi xodimlarni rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirishning (keyingi o'rinlarda – rag'batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

Jamiyat tizimida korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murossasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

3. Rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

4. Ushbu Nizom talablari qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o'ttiz sutka mobaynida o'z ixtiyori bilan arz qilmagan xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

5. Rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, qimmat baho turdagi sovg'a yoki qonunchilikda belgilangan boshqacha shaklda belgilanadi.

Qimmat baho turdagi sovg'a qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oshmasligi lozim.

## **2-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish asoslari va turlari**

6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

a) xodimga taklif etilayotgan (berilayotgan) pora summasi bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravarigacha bo'lsa – bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorigacha;

b) xodimga taklif etilayotgan (berilayotgan) pora summasi bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'ttiz baravarigacha bo'lsa – bazaviy hisoblash miqdorining qirq baravari miqdorigacha;

v) xodimga taklif etilayotgan (berilayotgan) pora summasi bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha bo'lsa – bazaviy hisoblash miqdorining sakson baravari miqdorigacha;

g) xodimga taklif etilayotgan (berilayotgan) pora summasi bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha bo'lsa – bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravari miqdorigacha;

d) xodimga taklif etilayotgan (berilayotgan) pora summasi bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha bo'lsa – bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravari miqdorigacha;

e) xodimga taklif etilayotgan (berilayotgan) pora summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan ko'p bo'lsa – bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravari hamda taklif etilayotgan (berilayotgan) pora summasining 10 foizi miqdorigacha.

Xodimga ushbu bandning:

“a”–“d” kichik bandlarida nazarda tutilgan rag'batlantirish turlaridan tashqari xodimga qo'shimcha tarzda qimmat baho turdagi sovg'a berilishi;

“e” kichik bandida nazarda tutilgan rag'batlantirish turlaridan tashqari qo'shimcha tarzda xodimni qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkin.

7. Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so'ng rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilganda, shuningdek, jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi birinchi qismining 1–3-bandlari, uchinchi qismi hamda beshinchi qismining 1-bandi asosida ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror prokuror tomonidan tasdiqlanganda yoki sudning ajrimi qonuniy kuchga kirganda.

8. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar Jamiyatning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

### **3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi**

9. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasi Jamiyat Boshqaruv raisi tomonidan ko'rib chiqiladi.

10. Rag'batlantirish uchun asos bo'luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:  
xodimning korrupsiyaga oid bildirgisi nusxasi yoki og'zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma'lumotlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organning jinoyat ishi qo'zg'atish haqidagi qarori nusxasi;

sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi nusxasi;

xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi va lavozimga tayinlanganligi haqida buyruq nusxasi.

11. Rag'batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab besh ish kunida Jamiyat Boshqaruv raisiga Komplayens-nazorat bo'limining bildirgisi bilan taqdim etiladi.

12. Jamiyat Boshqaruv raisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar besh ish kuni ichida ko'rib chiqilib, rag'batlantirish to'g'risidagi ko'rsatma Boshqaruv Raisi moliya va iqtisod bo'yicha o'rinbosari va Boshqaruv Raisining xodimlar bo'yicha o'rinbosariga (keyingi o'rinlarda – mas'ul tuzilmalar) beriladi.

13. Mas'ul tuzilmalar tomonidan Jamiyat Boshqaruv raisining ko'rsatmasi asosida uch ish kuni ichida rag'batlantirish haqida buyruq qabul qilinishini ta'minlaydi.

Buyruq birinchi rahbar tomonidan imzolanganidan so'ng, ikki ish kuni ichida xodimga naqd pul shaklida yoki plastik kartasiga o'tkazib beriladi, esdalik sovg'asi esa qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg'a qilinadigan buyum xarid qilingandan so'ng ikki ish kuni ichida topshiriladi.

14. Komplayens-nazorat bo'limi va mas'ul tuzilmalar xodimlari fuqarolarning shaxsiga oid ma'lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

15. Korrupsiyaga oid va manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha xabar bergan, korrupsiyaga qarshi kurashishda amaliy ko'maklashgan xodimlarni shaxsini sir saqlanishi, taqibga olinmasligi, boshqa ishga o'tkazilmasligi va ishdan bo'shatilmasligi Boshqaruv raisi va mas'ullar tomonidan kafolatlanadi.

### **4-bob. Yakunlovchi qoidalar**

16. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

17. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

18. Ushbu Nizom talablari buzilganligida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.